O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“YANGI O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ
ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ «ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ИННОВАЦИОННОГО КЛАСТЕРА»

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE OF TASHKENT REGION

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME OF "PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE CLUSTER OF PEDAGOGICAL EDUCATION IN NEW UZBEKISTAN"

VOLUME 2

May 20.21, 2022

CHIRCHIK CITY

учун ҳамиша шай бўлиб туриш, ёш авлодни Ўзбекистон Республикаси рамзлари - конституцияси, байроғи, герби, мадҳиясига ҳурмат билан қараш;
- турмушда энг олий қадрият ҳисобланган меҳнатга ижодий ёндошиш фазилатларини шакллантириш;
- соғлом турмуш тарзига интилишни тарбиялаш ва ривожлантириш, муносиб оила соҳиби бўлиш истагини шакллантириш;
- ёшларимизни эркин мустақил фикрлашга ўргатиш.

Шундагина замонавий фикрлайдиган, Ватанига содиқ, рақобатлашишга қодир ёшлар вояга етади, бу вазифани бажаришга ҳаммамиз масъуллигимизни ҳис этишимиз зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ш.М.Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11

2. American popular music. Larri Star & Christopher Waterman. Oxford Universite Press. Inc. 2007.

3. Бегматов С., Каримова Д. 6 синф «Мусиқа» дарслик. Т., 2018.

ZAMONAVIY O‘ZBEK ESTRADA QO‘SHQCHILIGI VA UNING TA’LIM-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Azizov Ravshanbek Kamilovich T.N.Qori Niyoziy nomidagi
O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktaranti

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan barcha sohalarda bo‘lgani kabi o‘zbek milliy musiqa madaniyatiga har qachongidan ham jiddiy e’tibor qaratildi. Mamlakatning birinchi Prezidenti I.Karimovning tashabbuslari bilan 21-mart umumxalq Navro‘z bayrami sifatida keng nishonlandi. “Ramazon hayiti”, “Qurbon hayiti” kabi diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi va ularning Respublikamizning barcha hududlarida Prezident Farmoni asosida keng nishonlanishi tashkil etildi. Bu jarayondan ilhomlangan san’atshunos, musiqashunos, folklorshunos, madaniyatshunos olimlar o‘z oldilariga katta vazifalarni qo‘ydi. Respublikamiz bo‘ylab musiqiy folklore ekspeditsiyalari tashkil etildi. Aholi orasida sho‘rolar mafkurasi tufayli qatag‘on ostiga olingan, ta’qib qilingan musiqiy meros qayta o‘rganildi. Musiqashunos olimlar F.Karomatov, O.Ibrohimov, O.Matyoqubov, N.Toshtemirov, I.Abdurahmonov, D.Mullajonov, Q.B.Panjiyev, R.Boltayev, B.Matyoqubov singari tadqiqotchilar respublikamizning barcha hududlari bo‘ylab, musiqiy folklor ekspeditsiyasini uyushtirib, boy va rang-barang ma’lumotlarni yig‘ishga muvaffaq bo‘ldilar.

Ushbu qayta tadqiqot natijasida boy musiqiy merosyig‘ildi. Xalqning turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan mazkur musiqa ijodiyotini maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktab dasturlarida kiritib o‘qitish tashkil etildi. Xalq ta’limi tizimi umumta’lim maktablarida musiqa darslarini haftasiga o‘qitish ishlari jadal olib borildi. O‘quv dasturlarida esa xalq qo‘shiqlarini o‘rganish keng yo‘lga qo‘yildi. Natijada o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida milliy musiqaning o‘rni va ahamiyati kun sayin oshib bordi hamda o‘zining ijobiy samarasini berdi.

Fransuz etnomusiqa olimi, doktor Frederik Leotar 1997-2012-yillar davomida O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida musiqiy folklor ekspeditsiyasi uyushtirgan edi. U o‘zbek milliy musiqa madaniyati xususida fikr bildirib, shunday degan edi: “O‘zbek xalq musiqa madaniyati nihoyatda boy va rangbarang, eng muhimi u o‘zining sofligi va asl holatini yo‘qotmaganligi tarixiy mo‘jiza. Chunki, qariyb bir asr davomida boshqa mamlakat tizimida kun kechirdi. Biz fransuzlar san’atimiz va madaniyatimizni sofligini va aslligini allaqachon unutib bo‘ldik. Endi uni boshqa xalqlar madaniyatidan qidirmoqdamiz. Fikrim dalili sifatida fransuz, shvetsar, nemis, ingliz, belgiyalik va boshqa Yevropa xalqini bir joyga jamlab qo‘ysak, uni faqat tilidan bo‘lmasa, yuz tuzilishi yoki kiyinishidan umuman farqlab bo‘lmaydi. O‘zbek xalqining Buxoro- Samarqand, Xorazm, Surxondaryo-Qashqadaryo va Toshkent-Farg‘ona uslubidagi kuy-ohang, hatto o‘ziga xos kiyinish odobi, gapirish shevasi orqali bir- biridan ajratish mumkin. Bu xalqning tarixan o‘zligini yo‘qotmaganligidan, boy ma’naviy merosini saqlab qolganligidan va hatto o‘z madaniy merosiga naqadar sadoqatli ekanligidan dalolatdir”,- degan edi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi musiqa madaniyati tarixan boy va rang-barang merosga egaligi ayni haqiqat. [1]

XIX asrning ikkinchi yarim yilligida o‘zbek musiqa ijrochiligida yangi bir janr paydo bo‘ldi va u tez fursatda aholining butun qatlamini qamrab oldi. XIX asr oxirlariga kelib bu tushuncha yakka tartibda, kichik shaklda ijro qilish ma’nosini anglata boshladi. Dramaturg p’esa, rejissiyor, spektakl, aktyor obraz yaratadi. Uchala jarayon bir kishida mujassam bo‘lib, u kichik shakldagi tomosha deb ataladi. Tomosha – nomer yaratish san’ati XX asrdan boshlab Estrada deb atala boshlandi. Nomer yaratgan va uni san’at darajasida namoyish qilgan shaxs estrada aktyori deb nomlana boshlandi[1-185]. Ma’lumki, XX asr o‘zbek musiqa san’atida keskin yangilanishlar davri bo‘ldi, “noan’anaviy” bastakorlik ijodiyoti hamda yangi konsert shakllari yuzaga keldi. Shu munosabat bilan musiqiy madaniyatga ham “estrada” tushunchasi kirib keldi. Dastlabki paytlarda uning qo‘llanish doirasi nihoyatda keng bo‘lganligi bilan tavsiflanadi. Bu xususda O.Bekovning quyidagi fikr-mulohazalari e’tiborlidir: “Yorqin rang-barang, keskin o‘zgarishlar asosida tuzilgan, ammo o‘zaro bog‘lanmagan estrada konserti amalda barcha badiiy ijodiyotning nazm va musiqadan to sirkkacha qariyb barcha turlari namunalarini o‘z komiga torta olishga “qodir” ekanligini namoyish etdi. Va nihoyat filarmonik konsert va teatr spektakllaridan farqli o‘laroq tomoshabin va artistlar orasidagi o‘ziga xos muloqot, yengil bog‘liqlik kabi estrada san’ati ijrochilik tabiatining asosiga aylandi. Shu jumladan, tomosha jarayonida tinglovchi bilan doimiy, bevosita bog‘liq bo‘lish holati o‘ziga xos konferans kabi Estrada

janrining yuzaga chiqishiga ham sabab bo‘ldi”. Muallif “estrada” atamasini sahnaviy san’at kesimida talqin etarkan, uning belgilovchi fazilatlari sifatida “Jonli, o‘ziga xos sodda musiqiy shakllar, gohida mualliflarning yorqin, shuningdek, jo‘nlashtirilgan intonatsion aylanma hamda “Ommaviy” raqsbop usullarga yondashuvlari”ni alohida ta’kidlaydi. Ushbu fikrlar o‘zbek musiqa madaniyating, asosan, 1920- 1950-yillariga taalluqlidir. Ta’kidlash joizki, hozirgi O‘zbekiston voqeligida “estrada” atamasi nafaqat sahna bilan bog‘liq holda, balki musiqada o‘ziga xos yo‘nalishni tavsif etishda ham qo‘llaniladi. Demak, musiqa madaniyatida “estrada” atamasi “tor” ma’noda ma’lum ijro va badiiy unsurlar birligiga asoslangan musiqa namunalarini ifoda etadi. [6: 58-59 б.]

Binobarin, bu o‘rinda “estrada” istilohi xususiy tushuncha sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda ushbu kesimdagi “estrada”ga oid “musiqiy estrada” tushunchasini qo‘llab uning zaminida “jadal usul”ga asoslangan barcha sahnaviy musiqa janrlarining majmuyini anglash maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, “estrada” so‘zining lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqqan holda, ya’ni uning keng ma’noda, umumiy “sahna san’ati” tushunchasi sifatida va tor ma’noda “musiqiy estrada” ya’ni maxsus tayyorgarligi bo‘lmagan tinglovchi osongina tushuna oladigan (jo‘n) hordiq chiqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi shaklan va mazmunan oddiy, tez esda qolarli kuy va asosan, raqsbop usullar (zaminida ma’lum qadar “bit”, ya’ni jadal usul)ni mujassam etgan musiqa namunalariga qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Yana shu narsani a’lohida ta’kidlash joizki, estrada qo‘shiqlarida asosan elektron ritmlar ustivor ahamiyat kasb etadi.

Xo‘sh, estrada tushunchasi qanday paydo bo‘ldi? Avvalo, ushbu savolga javob berishni o‘z burchimiz deb bildik. Dunyo madaniyatida katta o‘rin tutadigan bayramlar qadimgi greklarning ham o‘z xudolariga bag‘ishlab o‘tkazadigan asosiy tadbiri bo‘lgan. Bu bayramlarni tantanali nishonlash uchun ular, hatto qo‘shni shaharlardan mehmonlar chaqirishgan. Natijada, bayramlar xalq o‘yinlari ko‘rigiga, sportning jismoniy tarbiya turi bo‘yicha yigitlar o‘rtasidagi musobaqalarga, yasangan qizlarning kiyimlari namoyishiga hamda xor, qo‘shiq va raqs ustalarining musobaqasiga asos bo‘lgan.

Teatr, aktyor, tragediya, komediya, mim, xor, orkestr, drama, sahna, estrada, stadion kabilar qadimiy greklar yaratgan tomosha san’ati atamalari bo‘lib, ular hozir ham o‘z mohiyatini yo‘qotmagan. Otning taqasi shaklini eslatadigan qadimgi grek teatrlari 20-25 mingcha tomoshabinni sig‘dira olgan. O‘rtasi tekis bo‘lgan, atrofi tepalik bilan o‘ralgan joyni ular jihozlab stadion, ya’ni musobaqa joyi deb atashgan. Uch tomoni tuproq bilan o‘ralgan tepalik shaharning bir tomoni tekislikdan iborat bo‘lsa, bu joyni jihozlab teatr deb atashgan. Demak, greklar tomoshabinlar o‘tiradigan joyni teatr, tekislikning tomoshabinga eng yaqin oldi qismini orkestr, xor joylashadigan maydoncha deb atashgan. Bugun ham shunday, musiqali teatrlarda tomoshabin bilan sahna orasidagi joyga orkestr va xor joylashtirilgan.

Xor bilan muloqotga kiruvchi va uni boshqaruvchi korifeyni, tomoshabinlarga yaxshiroq ko‘rinishini ta’minlash uchun, uni orkestrni orqa tomonida maxsus jihozlangan taxta chorpoya ustiga chiqarishgan. Chunki, xorning

obro‘si baland bo‘lib, uning oldida yurish mumkin emas edi. Keyinchalik, korifey va xor bilan muloqot qilishi uchun chorpoya ustiga birinchi aktyor ham chiqqan. Sahnada korifey bilan birga birinchi aktyorning paydo bo‘lishi taxta jihozni yanada kegaytirishni talab qilgan va uni greklar “estrada”, ya’ni sahna, tom ma’noda “maxsus ko‘tarilgan joy”, deb ataganlar. Demak, estrada- aktyorlar jamoasi uchun maxsus jihozlab ko‘tarilgan joy sahna atamasi bilan hamon o‘z mohiyatini saqlab kelmoqda. Qadimgi greklar, “skene” deb, estrada- sahna ortidagi maxsus chodir, ya’ni palatkani atashgan[7: 44-46 б.]. U yerda aktyorlar kiyingan va sahna jihozlarini saqlagan.

Keyinchalik estrada-sahna orti maxsus devor bilan to‘silgan va “skene” - chodir tomoshabinga ko‘rinmaydigan bo‘lgan. Bu devorda uchta eshik qoldirilgan va undan aktyorlar sahnaga kirib-chiqib turgan. Ilk bor bu devorga Dionis uchun atalgan qurbonliklar osib qo‘yilgan. Shunday qilib devor asta- sekin mavzuga mos o‘zgarib, ilk dekoratsiya sahna bezagi vazifasini o‘tay boshlagan.

Bugungi kundagi teatr tushunchasi bizda yaxlit tomosha ko‘rsatish maskanini anglatadigan bo‘lsa, greklarda esa tomoshabinlar o‘tiradigan joy teatr, xor joylashadigan joy orkestr, aktyorlar harakat qiladigan joy sahna, jihozlar saqlanadigan joy-skena tushunchalari bilan atab kelingan[1, 3].

Nazarimizda, “musiqiy estrada” atamasini tor ma’noda qo‘llash pirovardida “pop-myuzik” atamasi bilan teng ma’noga va mazkur andozada ijod etilgan asarlarni musiqiy soha darajasida tasniflash kabi qulaylikka erishiladi. Ayni paytda atamalardagi bir-biri bilan uzviy bog‘liq kesishuv va tafovutlar ham bartaraf etilishi mumkin.

O‘zbek musiqiy estradasining shakllanish jarayonida folklor namunalari muhim zaminbo‘lganligini alohida ta’kidlash zarur. Bunda qo‘shiq, lapar va ayniqsa sho‘x yallalarning raqsbopligi, yengil ohang - usullar qo‘l kelganligi juda ahamiyatlidir. Ayni paytda bu holat “o‘zbek musiqiy estradasi”ning milliylik asosini ham ta’minlovchi vositalardan bo‘ldi.

XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar o‘laroq shakllana boshlagan o‘zbek Estrada qo‘shiqchiligini shartli ravishda ikki davrga, XIX asr boshlaridan uchinchi davrga bo‘lish mumkin: [1: 89-91 б.]

-birinchisi an’anaviy janrlar - qo‘shiq, lapar, yallalar rivojlangan davr;

- ikkinchi davri esa folklor janrlari musiqiy Estrada talablari asosida usluban qayta ishlanish boshlangan davr;

- uchinchi davr mumtoz kasbiy musiqa ashula janrlari musiqiy estrada talablari asosida yengillashtirilib qayta ishlanish boshlangan davrdir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab yaratilayotgan estrada san’ati asarlari orasida Vatan, istiqlol, ozodlik, millat, sevgi – muhabbat, lirik mazmun kasb etuvchi qo‘shiqlar keng o‘rin oldi. Boshqa san’at turlari qatorida eng ommaviy san’at turi – musiqiy estrada rivoji uchun yangi sharoit, yangi tizim joriy etildi.

Shu o‘rinda aytish joizki, o‘quvchi-yoshlarni milliy musiqa ta’limi ta’siri ostida Ona-Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, do‘stlarga izzat, ota-onaga mehr, millat va dinga nisbatan sadoqat, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashda estrada qo‘shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati qanday bo‘lmoqda. Biz ta’lim va tarbiya jarayonida undan qanday foydalanmoqdamiz. Umuman olganda, umumta’lim

maktablarida turli musiqiy va badiiy tadbirlar, tanlov va musobaqalarni doimiy tashkil etib borish ham yaxshi natijalar beradi. Ayniqsa, milliy musiqa san'ati xususida yosh ijrochilar tanlovini umumta'lim maktablari miqyosida tashkil etish, o'zbek milliy cholg'u ijrochilik ansambllari faoliyatini yo'lga qo'yish, maktablarda musiqa to'garaklarini tashkil etish va unda xalq qo'shiqchilik namunalarini o'rganish ishlarini keng targ'ib etish muhokama etilayotgan masalani yanada yaxshilashga yordam beradi.

Musiqiy ta'lim va tarbiyada tizimiylik, ichilllik, davomiylik prinsipi har bir darsda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqa ta'limi va tarbiyasi keng, atroflicha bo'lishiga e'tibor qaratish asosiy omildir. Bunda inson yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqaviy tajribalar o'z aksini topgan. Darsning barcha o'quv faoliyatlari hamda keyingi darslarning o'zaro mantiqiy bog'lanishi tizimlilik asosini tashkil etadi. Xulosa qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik prinsiplari, musiqa madaniyati darslarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, musiqa va hayot uyg'unligini, mehnat qobiliyatlarining rivojlanishi, bunyodkorlikka yo'naltirilganligi bilan katta o'rin tutadi. Uzliksiz ta'lim - ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakaviy raqobatbardosh adrlarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Demak, musiqa darslari ham raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning barcha turlarini, Davlat ta'lim standartlari, kadrlar tayyorlash tizimi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Bugungi zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi jarayonida yoshlarni milliy Estrada qo'shiqchiligi sadolari ostida tarbiyalashda har qachongidan ham ko'ra ko'proq e'tiborli bo'lishni talab etmoqda. Maktabda musiqa o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritayotgan har bir o'qituvchi o'quvchilarni estrada san'ati orqali tarbiyalash jarayonida milliy musiqaga alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki milliy musiqa san'atining mazmunan rang-barangligi, alla, yor-yor, o'lan, qo'shiq, terma, yalla, terma, lapar, katta ashula, maqom va boshqa qaysi bir janr bo'lmasin, u o'zining dilbar ohangi, sho'x usullari nola-yu, serjilo qochirmalari bilan o'zbekning tabiatini, o'zgaga o'xshamas udum va urf-odatlarini musiqiy ohanglar orqali tarannum etadi va har bir o'quvchi yosh uni tushunadi, his hayajon bilan idrok etish va undan qalb to'la zavq-shavq olishi tabiiy holdir.

Ta'lim tizimida yoshlarni estrada san'ati asosida tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning birligiga erishish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuni alohidanazarda tutmoq lozimki, bu tarbiyaning muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlar ta'limoti orqali amalga oshirib borishi mumkin. [5: 14-19 б.] Ular quyidagilardir:

- dastur asosida tashkil etiladigan har bir Estrada san'ati darsining estetik nuqtayi nazardan aniq maqsadga qaratilganligini ta'minlash;

- dars uchun musiqiy materiallarni, o'rgatish metodlarini, uslub va vositalarni to'g'ri tanlay olish; - o'qituvchi tomonidan har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini, musiqiy qobiliyatlarini, ijro va idrok imkoniyatlarini hisobga olishi;

- o‘quvchilarda musiqiy estetik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan mantiqiy, maqsadga muvofiqlik uzluksizlikning ta’minlangan bo‘lishligi;

- musiqiy estetik tarbiya jarayonida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning hissiy, ijodiy va ahloqiyfaoliyatlarining mutanosibligi ta’minlangan bo‘lishi ko‘zlangan maqsad sari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy estrada qo‘shiqchiligi tarbiyasida ta’lim bilan tarbiyani mushtarak bo‘lishi ta’limning ilmiy ongli, ko‘rgazmali, tushunarli, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkam bo‘lishi kabi tamoyillarga jiddiy amal qilgan holda olib borilishiga erishish lozim. Musiqa darslarida o‘qituvchi o‘z oldiga o‘quvchilarni musiqiy estetik madaniyatlarini shakllantirishni maqsad qilib qo‘ysa, quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar provard natija ekanligini yodda tutmoq lozim:

- o‘quvchilarda milliy estrada qo‘shiqchiligiga nisbatan qiziqish va havas tobora ortib borishini ta’minlash;

- dasrdan tashqari musiqa mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarnining ijodiy faolligini va tashabbusi orta borishida estrada qo‘shiqlari va uning mazmun mohiyatini belgilash;

- musiqani diqqat va ishtiyoq bilan tinglash, asarlardan xushsozlik, xushovozlik va undan go‘zallikni anglay olishni, unga o‘z munosabatini bildira olish malakalarini shakllantirib borishi; - musiqiy estetik faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan bo‘lishi;

o‘quvchilarda musiqa san’ati ta’sirida go‘zallikka intilish, rostgo‘ylik, do‘stlikni qadrlash kabi axloqiy-estetik tushunchalarni tarkib topa borishi. Darsda o‘zini tuta bilishi, muomala, kiyinish kabi estetik madaniyatning bir qator sifatlarini shakllantirib borishi.

O‘zbek milliy estrada musiqasi hamda uni o‘qitish, ta’lim va tarbiyaviy jihatlar haqida gap ketar ekan, o‘quvchi-yoshlarda sog‘lom didni shakllantirib boorish e’tiborda bo‘lishi kerak.

Yuksak badiiy didni tarbiyalashda san’atning hamma turlari muhim va ularning har biri o‘z xususiyati va imkoniyatiga ega. Mamlakatimiz maktablarida musiqiy estetik tarbiyani amalgaoshirish, o‘quvchilarda yuksak estetik badiiy didni voyaga yetkazish uchun zaruriy zamin hozirlab berishning, yoshlarga san’at asarlarining estetik mohiyatini singdirishning muhim tarmog‘idir. [2: 8-9 б.] Shu munosabat bilan maktabda musiqa tarbiyasini amalga oshirishda o‘zbek estrada janrida alohida e’tibor berish, ularni dastur talablariga muvofiq musiqaviy bilim bilan qurollantirish, estrada san’ati haqida bilim – ma’lumotlarni chuqur, puxta o‘zlashtirishga erishish eng muhim vazifalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alaviya M. «O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari» Toshkent, Fan, 1974 y.-221 b.

2. Ibrohimov O.A. «O‘zbek xalq musiqa ijodi» (metodik tavsiyalar I qism), Toshkent, 1994 y. – 62 b.

3. Mirzaeva N.A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Ma’ruzalar matni. Toshkent. 2008. 48 b.

МУНДАРИЖА:

IV ШЎЪБА. ЭЛЕКТРОН ПЕДАГОГИКАНИНГ ИНТЕГРАТИВ АСОСЛАРИ

Абдуллаева Г.С. Махсус таълимда “Def akademiya” мобил иловасининг ўрни...6
Абдуллаева Г.С., Ахраева М.А. Эшитишда нуқсони бор болаларнинг талаффуз малакаларининг шаклланишида ахборот технологияларнинг ўрни 9
Бахтиёрова С.Э. Электрон педагогиканинг хусусиятлари.....11
Жабборова О.М., Муқимжонова Н. Бошланғич таълим ўқув фанлари учун электрон-модулли материаллар тайёрлаш усуллари 13
Ramazonov X.C. Ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalanishning asosiy mohiyati 15
Ташпулатова Д. М. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини электрон педагогиканинг интегратив асослари билан таништириш 18
Ernazarov K.l A., Kalabayeva M. A. Kimyo fanini virtual laboratoriyalar va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib o‘qitishning ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi o‘rni 20
Якубжонова М. И. Олий таълимда медиа-маданий технологиялардан фойдаланиш 22

V ШЎЪБА. АРАЛАШ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Ayubova I. X., Yusupxodjayeva E. N., Ziyayeva M. A. Ekologik ta’lim komponentlarini shakllantirishda zamonaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalarning roli 27
Allamova Sh. Sh., Xasanova S. X. O‘quv jarayonlarida teskari sinf modelidan foydalanish 29
Artikova G.E. 9-sinf jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirish omili 32
Bektemirova Z. J. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimediya texnologiyasidan foydalanish 35
Bozorboyev I. I., Innazarov M. A. Rahbar va pedagoglarning malakasini oshirishda aralash ta’lim (blended learning)ning ahamiyati 39
Гулямов К.М., Икромов М.Ҳ. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини компьютер график моделлаштириш асосида касбий тайёрлаш 41
Жабборов М. Муаллифлик технологиялари ва уларнинг мусиқа таълимидаги ўрни 46
Jumaniyazova N.X. O‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda axborot texnologiyalari va xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish 48
Исманова М. А. Олий таълим жараёнида талабаларнинг методик тайёргарлигини шакллантиришда инновацион ёндашувнинг аҳамияти 51
Karimova M.O. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbollari 53
Kultayev K. K., Norova N. B., Dangalova A. A. “Aluminiy va uning xossalari” mavzusini o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish 55
Kamolova N. I., Ademova N. Y. Ishqoriy yer metallari mavzusini o‘qitishda

“keys-stady” texnologiyasidan foydalanish 58
Mo‘minjonova M. Ijodkor talabaning psixologik portretini shakllantirish natijalarini tahlil qilish 62
Маматмуминов У. К. Бошланғич синфларда она тили дарсларини интеграцион асосда ўқитиш технологияси 64
Narimbetova Z. Maktabda standart va nostandart geometrik masalalar 67
Nasimova Z. I. Modulli ta’lim texnologiyalarini joriy etishning muammo va yechimlari 69
Носирова Р. Х., Халимова О. Д. Мактабгача таълим ташкилотларининг ўқув тарбиявий фаолиятида ахборот технологиясидан фойдаланиш имкониятлари 71
Омонов Ш. Н. Олий таълим муассасаларида сиртқи таълим шакли талабаларига зоология фани дарсларини ташкил этиш 73
Раҳимова Ф. М., Уташев О. А. Аралаш таълим технологиялари 75
Санакулов З. Атоқли отларда идентификация ва индивидуализация (немис тили мисолда) 78
Sayfullayeva I. Q. Autizm sindromli bolalarni nutqiy muloqotini shakllantirishda art-texnologiyalarning o`rni 80
Sapayev U. A. Talabalarning innovatsion faoliyat madaniyatini rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar va innovatsion muhitni shakllantirish mexanizmlari 85
Sultonov A. I. Belbog‘li kurash qoidalarining xususiyatlari 88
Toxirov F. J. Talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari 91
Shomurodov J. O. O‘quvchilarni badiiy-estetik mazmundagi o‘quv materiallari bilan tanishtirishda kognitiv texnologiyalarning ahamiyati 93
Эргашев И. Сафаров М. М. Ёшлар сиёсий онги ва маданиятининг модернизациялашиш жараёнида замонавий педагогик технологияларнинг аҳамияти 95
Yakubov X.K., Allamberganov O.Sh. Materialshunoslik fanidan modulli mashg‘ulotni loyihalash texnologiyasi 99
Қодирова Ф.У., Матупаева Ш. Инклюзив таълим шароитида бошланғич синфларда математика фанини ўқитишнинг замонавий технологиялари 103
Xudayberganov G‘.Q. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida geometrik figuralarni tanishtirishda she’riy ta’riflardan foydalanish 106
O‘rolboyeva D. S. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni mashg‘ulotlar jarayonida triz texnologiyasi bilan tanishtirish 108

VI ШЎЪБА. ТАБИИЙ, ИЖТИМОИЙ ВА АНИҚ ФАНЛАР ТИЗИМИДАГИ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАР

Абдуллаев А.А. Тошкент вилояти жой номларида фольклор унсурлари 112
Abdullayev A. G., Karimberganova Z. Sh., Abdullayeva M. G. O‘zbekiston respublikasi transport geografiyasi mavzusini o`rganishda amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish shakillari 114
Abdullayeva X. A. Limitga ega bo‘lgan funksiyalarning xossalari 118
Abdullayeva X. A., Akbarova H. A., Xo‘jamqulova F. A. Kompakt to‘plam. kompakt to‘plamda uzluksiz funksiyalar 121

Абдурахманова С. С., Саматов С. Б., Бойтемиров О. Э., Зиядуллаев О. Э. ZN(OTF)2/TBAF•3H2O каталитик системада айрим ацетилен спиртлари синтези 122
Abdurizaeva S. R. Biologiyani oʻqitish jarayonida infografikadan foydalanish muammolari.....125
Azimova D. E., Avalbayev O. N., Sharipova M. X. Oliy taʻlim muassasalarida botanika fanidan dars mashgʻulotlarini tashkil etishda nostandart testlardan foydalanish 126
Акбаров У. Й. Акбаров С. У. Динамик масалаларни ифодаловчи тенгламаларни ечишга maple дастурини қўллаш 129
Акбарова М. М., Сманова З. А. Тиббиёт соҳасида Ўзбекистонда яратилган янги фан 134
Акбарова М. М., Сманова З. А. Кимё фанлар тизимида Ўзбекистонда яратилган янги фан 136
Alqorov Q X, Abdullaev B. U. Fizikadan sinfdan tashqari ishlarda tabiiy, ijtimoiy, aniq va maxsus fanlar tizimida kasbiy integratsiya modeli 138
Amindjonova G. K., Fayziyev V. B. Gilos viruslari va ularga qarshi kurashish choralari 141
Aroyev D. D., Qaxxorova M. Sh., Ergashev A. Gʻ., Gorner sxemasi yordamida koʻphadga doir ayrim masalalarni yechish.....143
Asqaraliyeva M A. Oʻquvchilarga baʼzi nostandart tenglamalarni qiymatlari sohasini taqqoslash usuli bilan yechishni oʻrgatish 146
Асраров М. И., Эргашев Н. А. Сайфиева Х. Дж., Исамухамедова Д. Р., Махмудов Р. Р. E.FRANCHETII ўсимлигидан ажратилган эгкг полифенолининг митохондриялар мегапорасига таъсири 148
Axmedova G. A. Trigonometrik tenglamalarni yechishda tengsizliklardan foydalanish 151
Abdullayeva N.N. Bolalarda intiluvchanlik va izlanuvchanlik qobiliyatini oshirishdagi metodlar 153
Аллаярова Н.Н. Талаба-ёшларни ижодий тафаккурини ривожлантиришда мусиқа санъатининг ўрни ва ахамияти 155
Azizov R. K. Zamonaviy oʻzbek estrada qoʻshqchiligi va uning taʼlim-tarbiyaviy ahamiyati 157
Bobojonova O.O. Organik moddalarning tuzillishi va xossalariga oid soʻnggi nazariyalar 163
Baratov J. Sh. Fizika oʻqitishda nostandart topshiriqlarning ahamiyati 164
Boyboboyeva S.T., Ахмедова Н.Ш., Xalilova R.E. Boʻlajak fizika oʻqituvchisining kvazi-professional faoliyatini shakillantirish va uning yutuqlari 167
Boydedayev S. R., Umaraliyev M.M., Turgunov A.R., Suvanov A.H., Nurmuhammedova Sh.I. Determination of yung module for some metals (Al, Cu, Fe) 170
Бурцева А. В. Проблемы зарождения жизни. Теории зарождения жизни 173
Daminova Sh. F. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobga boʻlgan qiziqishlarini orttirish.....175

Ziyadullayev O. E., Ikramov A., Tirkasheva S. I., Bo‘riyev F. X. 1-etinilsiklogeksanol sintezi va uning demirizatsiyasi 178
Imomnazarova M. A. Davriy funksiyalar va uning xossalari haqida 180
Kutlimuratov S.Sh. Astronomiya kursini mustaqil ta’lim sifatida o‘qitishda sdss va vizier bazalaridan foydalanish 183
Kushakov A. J., Xasanov N. X., Urinov B. S., Boboyorova G. Zarafshon havzasi tuproqlari meliorativ holatining antropogen omillar ta’sirida o‘zgarishi 186
Qaraxanova L.M. Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoniga zamonaviy yondashuv – samaradorlik omili sifatida 188
Қаршиева Д. С. Педагогларда касбий стресс ва унинг психологик хусусиятлари 191
Qodamboyev P. Q., Eshchanov E. U., Usmanov R. M. Organik kimyo kursining uglevodorodlar bo‘limini o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari 194
Quzmanova G. B., Ermatova D. A. Boshlang‘ich ta’limda matematika amaliy mashg‘ulotlar vositasida talabalarni xalqaro baholash jarayonlariga tayyorlash 196
Қўқонбоева Ш. Р. Кейс-стади технологияси асосида бўлажак физика ўқитувчиларида касбий компетентликни шакллантириш 199
Malikov K. H. Fizika va astronomiya yo‘nalishining laboratoriya darslarida zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanishning ahamiyati 202
Mamatov J. A. O`quvchilarni matematik tafakkurini rivojlantirishda mantiqiy masalalarni yechish usullari 205
Мамутов А. Н., Фаязова Д. Т. Развитие творческих способностей студентов по предмету «методика преподавания математики» 207
Maxmudova O. Y. Transendent tenglamalarni yechishda o‘zgaruvchilarni almashtirish 210
Mislidinov B. Z., Abdufattoxov I. A. Pedagogik texnologiyalarning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati (Fizika o‘qitish misolida) 212
Muminov I. Elektrostatika mavzularini o‘qitishda elektromexanik analogiyalarning didaktik ahamiyati 215
Muradov Sh. K., Xatamova D. Q. Tekis egri chiziqning egriligi va ikkinchi tartibli egri chiziqlar egriligining geometrik o`rnini aniqlash 218
Musurmonova M., Ismoilova M. Boshlang‘ich sinflarda jadvalda va jadvaldan tashqari ko‘paytirish va bo‘lish amallarini o‘rgatish 221
Муталов К. А. Формация селиновая-aristidatapennatae 224
Мухитдинова М. С. Роль музыкальных занятий школьников старших классов в современном образовании 226
Мухитдинова М. С., Медведева А. А. Музыкальное воспитание старших школьников в современном Узбекистане 230
Maxmudova D. B. Ta’lim innovatsiyasi va texnologiyasi: integratsiyaga ehtiyoj .233
Abdrimova Q. M. Maktab pedagoglarining o‘quvchilar ta’lim jaroyini sifatini oshirishdagi ahamiyati 235
Намазбаева Л. З. Олий таълим муассасалари талабаларининг табиий фанлар тизимидаги ўқув–тадқиқот фаолиятидаги долзарб муаммолар 237
Narimbetova Z. Maktabda standart va nostandart geometrik masalalar 240

Nasriddinov K.R., Dusmuratov M.B On the new approach to the concept of field 242
Nosirov S. N., Mamatqulova M. I.i, Umirzakova M. B. Natural va butun sonlar to‘plamida o‘zaro bir qiymatli akslantirish va avtomorfizmlar 245
Омонов Ш. Н. Олий таълим муассасаларида сиртқи таълим шакли талабаларига зоология фани дарсларини ташкил этиш 246
Otajonova S. R. Innovatsion texnologiyalar vositasida biologiya o`qituvchisining valeologik kompetentligini rivojlantirish 248
Ochilov F. I., Axunova D. U., Rahmonov B. X., Salomov M. A. Boshlang‘ich sinf “tabiatshunoslik” darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari 250
Парпиева М.Ж., Мирхамидова П., Позилов М.К., Галоксифоп-р-метил пестициди билан заҳарланган каламуш жигар митохондрияси ptp ҳолатига софорофлавонозид ва нарциссин флавоноидларининг таъсири 253
Po‘latova K. N. Boshlang‘ich sinflar matematika darslarida geometrik masalalarning klassifikasiyasi.....257
Расулова Г. А., Мўйдинжонов Д. Р. Инновацион ёндашув асосида математик ҳисоблашларни бажариш усуллари 260
Рахимов С. М. Дастурлашга асосланган фанларни сиртқи таълимда ўқитиш муаммолари 262
Рахмоналиева З.З., Алланазарова И.А. Алгоритм выявления учеников с развитым естественнонаучным мышлением.....265
Розумбетов К. У., Далжанова Г. Б., Тажимуратова Г. Т. Половые различия тотальных размеров тела у подростков.....268
Рўзимова Х.К. Экологияни ўқитишда экологик маданиятни шакллантириш 270
Ro‘zmetova S.X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga psixologik yondashish 272
Саматов С. Б., Аблакулов Л. К., Зиядуллаев О. Э., Отамухамедова Г. Қ. Zn(OTf)2/TBAF•3H2O каталитик системасида ацетилен спиртларини синтез қилишда реакцион омиллар таъсири 274
Sattorov M. S., Fayziev V. B. Olxo‘ri chechagi virusining tabiiy sirkulyatsiyasi hamda o‘simlik bargi va mevalaridagi alomatlari 276
Суяров К.Т., Эгамберганов И. Ш. Комплекс тадқиқотчилик топшириқлари асосида талабада тадқиқотчилик компетентлигини шакллантириш жараёни 279
Sulaymanova D. B. Ta’lim jarayonida fanlarni o‘qitishda geymifikatsiyadan foydalanish 283
Султанов М. М. Алгебраик ва геометрик методларнинг уйғунлашуви ва ундан келиб чиқадиган дастлабки хулосалар 285
Тилегенов А.Т. Ёшларда миллий анъаналар ва қадриятларни ўрганиш орқали миллий туйғуни шакллантириш масалалари 290
Tangriyev T. Ch., Sattorov M. S., Fayziev V. B. Olxo‘ri chechagi virusining o‘simlikdagi alomatlarining rivolanish darajasi 293
Tolipova J. O., Umaraliyeva M. T., Abdurahmonova I. Yu. Ixtisoslashtirilgan maktablarda biologik ta’lim mazmunining nazariy asoslari 295
Toxirov F. J. Talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari 298
Туйчиева Д., Мирхамидова П., Парпиева М. Влияние бутилкаптакса на

структуру клеток печени эмбрионов крыс 300
Tursunov I.G., Eshniyozov U.A., Ruzibayeva M.X. Elektrotexnika fanini o‘qitishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish 306
Тухтабаева Ф.М., Туйчиева Д.С., Хашимджанова М.Н., Ибрагимова Р.Н. Влияние некоторых концентрации соли на всхожест семян пшеницы 308
Tuxtasinov M. M. Дasturlash tillarini o‘qitishda zamonaviy texnik va elektron vositalardan foydalanish 311
Умматов А.М. Биология дарсларида “адаптив радиация қонуни”ни таҳлилига доир 313
Умматова М.А., Сулаймонов М. Дидактические функции практических занятий по математике 315
Ummatova M. E., Shukurova M. B. Zoologiya darslarida “atamalar zanjiri” uslubidan foydalanish 319
Уролов Ш.З., Турсунов И.Г., Абдуллаев Ҳ.Ш. Гидротермал усулда рух оксиди нанородларини синтез қилиш ҳамда уларнинг морфологик характеристикаларини ўрганиш 322
Уснатдинова Ж. Ш. Мактабгача катта ёшдаги болаларда ўз-ўзини баҳолаш қобилиятини ривожлантиришнинг айрим масалалари 325
Химматкулов О., Турсунов И.Г., Применение педагогических технологий в лабораторно-практических занятиях по физике 328
Холматова С. К. Таълим-тарбия жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланиш 330
Xadjimetova G. T. Bola tarbiyasida oila maktab mahallaning bog‘liqligi va ahamiyati 332
Эсонов М. М. Функции наглядности в обучении математике для развития мышления. (на примере геометрических задач) 334
Эшонқулов О. Д. Биогаз олиш ва органик ўғит тайёрлаш 337
Эшчанов Р. Абдураззоқова Н.А. Ностандарт лабораториялар мазмуни 339
Yunusova D. I., Yunusova G. A. Talabalarda matematikani o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyasini rivojlantirish 341
Yusupova N. V., Muxtoraliyeva M. A. Oliy ta’lim muassalarida matematika o‘qitishda qo‘yiladigan dts talablari 344
Khujaniyozova O.R., Abdullayeva F.Sh. objectives in directing the youth to the scientific-creative occupations 346
Жамолҳожи И.Н. Темурийлар даврида жисмоний тарбия ва спортнинг ўрни 351
Умаралиева М, Мирзажонова Д, Ногиронлиги бўлган болаларнинг тўлақонли хаёт тарзига тайёрлашда оиланинг ўрни.....354
Джураева Б. Зуфарова Д., Система мониторинга в доу 356
Джураева Б. Р. Планирования работы дошкольных образовательных учреждений 359
Abdullayev.A.A, Ashirboyev.I. M., Abdijjaborova.S.Q, Xoshimova.X.A. Yoshlarni tarbiyalashda xalq o‘yinlaridan foydalanish 363
Abdullayev.A.A, Satvaldieva.N.Z, Adashboev.M.K, Agzamova.G.Z Yosh avlodni tarbiyalashda tibbiy muhitning shakllantirishda jismoniy tarbiyaning axamiyati 365

Juraboyev.A.B, Xayitmurodov.M. B, Rasulov.S.R, Odinayeva.D.Y Methods and categories of physical culture 367
Maripova.N.H. Masharipova.A.O Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiyatning o'rni 370
Juraboyev.A.B. Ernazarova.F.M, Mirzaeva.M.A, Anarboeva.S.J Yoshlarimizning jismoniy ma'naviy-axloqiy fazilatlarining rivojlanish milliy kurash o'rni.....372
Masharipova.A.O Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos axamiyati 374
Mirzakarimov.U.G Innovason o'qitish texnologiyalariga asoslangan mutaxassislar tayyorlash tizimi 377
Xolmatova.S.K, Xakimov.J.K, Ro'ziboev.F.R, Abdurasulova.M.A Mamlakatimizda xotin-qizlar sportni rivojlantirish muhim omili.....379
Matmurodov.A.K Bolalarda predmetlarning o'lchami va ularni o'lchash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish 380
Matmurodov.A.K, Qo'ziboyeva.S.K, Davlatova.M.M, Kurbanova.N.F Maktabgacha yoshdagi bolalarga predmetlarning o'lchami va ularni o'lchash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish yo'llari (tayyorlov guruhda) 383
Atabekov.F.O', Qadamov.H.H, Omonova.M.I Jismoniy tarbiya tizimida voleybol o'yining tutgan o'rni.....386
Ахмадалиев.Б.С Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш усуллари 388
Shanasirova.Z.Y Maktabgacha ta'lim tizimida didaktik o'yinlar va klaster metodi orqali tabiat bilan tanishtirish.....390
Narimbaeva.L.K, Degtyareva.D.A, Mirzaliyeva.A.B Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi va oila bilan o'zaro xamkorligi 392
Maripova.N.H Tarbiyachi kasbidagi innovasion faoliyatning dolzarb jihatlari 394
Po'latova.K.N Boshlang'ich sinflar matematika darslarida geometrik masalalarning klassifikasiyasi.....396
Каримжонова.Д.А, Хайриддинов.Б., Худойберганова.Ш., Сотиволдиева.Х. Мактабгача ёшдаги болаларнинг нутқини ривожлантириш 399
Mutalova.D.A, Baxtiyorova.M.A Chet tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqot muammosi 402
Хидоятова.Н.А Развитие речи дошкольников 404
Gimazutdinov.R.G, Melieva.G.E, Muxitdinov.I.E, Manzurov.A.X Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda sog'lom turmush tarzi orqali xalq o'yinlari o'tkazish 407
Ўразалиева С.Т., Убайдуллаева Г.Н. Бўлажак ўқитувчининг ота-оналар билан ишлаш функциялари 409
Soatov.E.M, Muxtarov.E. B., Egamnazarova.T.Z., Yo'ldashov.X.B. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy mashg`ulotlarni sog'lomlashtirishda kun tartibida o'tkazilish 411
Maryambibi.A.Dj, Satvaldieva N.Z.,.Ernazarova S.I, Ashirboev I. M., Abdijjaborova S. Q. Farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni 414
Турсунбоева.М.Д. Мактабгача ёшдаги болалар нутқини ривожлантириш 416
Maryambibi.A.Dj. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida ijtimoiy ko'nikmalarni takomillashtirish yo'llari 417
Носирова.Р.Х., Эргашева.О.М, Олимбоева.М. Мактабгача ёшдаги болалар

тарбиясида ўйинларнинг аҳамияти 421
Хуррамов Э.Э., Мирсултонова Қ.М. Мактабгача таълим муассасаси машғулотларда интерфаол усулларни қўллаш.....423
Atabekov F.O`, Maxmudova O.A., Omonova M.I. Badminton o‘yinining texnologiyalari va qoidalari asoslari va qoidalari 425
Эгамберганов И.Ш. Талабада изланувчанлик қобилиятларини ривожлантиришда интегратив ёндашув.....427
Сангирова З.Б. Физика фанини ўқитишда лойиҳалаштириш таълим технологиялари.....430

Босишга рухсат этилди 14.05.2022 й.
Бичими 60x84 1/16. Офсет қоғози. ‘‘Times New Roman’’
гарнитураси. Ҳисоб-нашр табоғи. 27,5.
Адади 100 дона. Буюртма № 78.

«HISTORY AND PAGE» МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Манзил: Тошкент вилояти, Чирчиқ шаҳри, Амир Темур кўчаси.

CHDPI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE OF TASHKENT REGION

CERTIFICATE

presented to

AZIZOV RAVSHAN KOMILOVICH

(Uzbekistan)

For active participation in the scientific
Conference on subject
"PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE CLUSTER OF PEDAGOGICAL EDUCATION IN NEW UZBEKISTAN"

Rector _____ G.I.Mukhamedov

CHIRCHIK
2022